

JOURNAL OF TRANSPORT



ISSUE 4, 2025 vol. 2

E-ISSN: 2181-2438

ISSN: 3060-5164



RESEARCH, INNOVATION, RESULTS



**TOSHKENT DAVLAT
TRANSPORT UNIVERSITETI**

Tashkent state
transport university



JOURNAL OF TRANSPORT

RESEARCH, INNOVATION, RESULTS

E-ISSN: 2181-2438

ISSN: 3060-5164

VOLUME 2, ISSUE 4

DECEMBER, 2025



jot.tstu.uz

TASHKENT STATE TRANSPORT UNIVERSITY

JOURNAL OF TRANSPORT

SCIENTIFIC-TECHNICAL AND SCIENTIFIC INNOVATION JOURNAL

VOLUME 2, ISSUE 4 DECEMBER, 2025

EDITOR-IN-CHIEF

SAID S. SHAUMAROV

Professor, Doctor of Sciences in Technics, Tashkent State Transport University

Deputy Chief Editor

Miraziz M. Talipov

Doctor of Philosophy in Technical Sciences, Tashkent State Transport University

The “**Journal of Transport**” established by Tashkent State Transport University (TSTU), is a prestigious scientific-technical and innovation-focused publication aimed at disseminating cutting-edge research and applied studies in the field of transport and related disciplines. Located at Temiryo‘lchilar Street, 1, office 465, Tashkent, Uzbekistan (100167), the journal operates as a dynamic platform for both national and international academic and professional communities. Submissions and inquiries can be directed to the editorial office via email at jot@tstu.uz.

The Journal of Transport showcases groundbreaking scientific and applied research conducted by transport-oriented universities, higher educational institutions, research centers, and institutes both within the Republic of Uzbekistan and globally. Recognized for its academic rigor, the journal is included in the prestigious list of scientific publications endorsed by the decree of the Presidium of the Higher Attestation Commission No. 353/3 dated April 6, 2024. This inclusion signifies its role as a vital repository for publishing primary scientific findings from doctoral dissertations, including Doctor of Philosophy (PhD) and Doctor of Science (DSc) candidates in the technical and economic sciences.

Published quarterly, the journal provides a broad spectrum of high-quality research articles across diverse areas, including but not limited to:

- Economics of Transport
- Transport Process Organization and Logistics
- Rolling Stock and Train Traction
- Research, Design, and Construction of Railways, Highways, and Airfields, including Technology
- Technosphere Safety
- Power Supply, Electric Rolling Stock, Automation and Telemechanics, Radio Engineering and Communications
- Technological Machinery and Equipment
- Geodesy and Geoinformatics
- Automotive Service
- Air Traffic Control and Aircraft Maintenance
- Traffic Organization
- Railway and Road Operations

The journal benefits from its official recognition under Certificate No. 1150 issued by the Information and Mass Communications Agency, functioning under the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan. With its E-ISSN 2181-2438, ISSN 3060-5164 the publication upholds international standards of quality and accessibility.

Articles are published in Uzbek, Russian, and English, ensuring a wide-reaching audience and fostering cross-cultural academic exchange. As a beacon of academic excellence, the "Journal of Transport" continues to serve as a vital conduit for knowledge dissemination, collaboration, and innovation in the transport sector and related fields.

The significance of the digital economy in the higher education system: human capital, digital governance, and financial efficiency (Uzbekistan's experience)

B.B. Farmonov¹ ^a

¹Higher School of Business and Entrepreneurship under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan

Abstract: The article examines the strategic importance of higher education in the context of the digital economy. The digital economy is viewed as a set of economic activities grounded in digitized information and knowledge, where the primary drivers are human capital and data-driven governance. In Uzbekistan, the Concept for the Development of the Higher Education System up to 2030 and the national “digital transformation” agenda substantially strengthen the role of digital solutions in improving governance, educational quality, academic integrity, and the efficiency of education financing. The analysis shows that digital platforms in higher education—such as HEMIS and distance-learning infrastructure create opportunities to enhance resource planning, ensure transparent expenditure control, automate grant allocation and assessment mechanisms, and expand access to educational services.

Keywords: digital economy, higher education, HEMIS, distance learning, financing efficiency, transparency, human capital, data-driven governance

Oliy ta'lim tizimida raqamli iqtisodiyotning ahamiyati: inson kapitali, raqamli boshqaruv va moliyaviy samaradorlik (O'zbekiston tajribasi)

Farmonov B.B.¹ ^a

¹O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi, Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya: Maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim tizimining strategik ahamiyati yoritiladi. Raqamli iqtisodiyot “raqamlashtirilgan axborot va bilimlar”ga tayanadigan iqtisodiy faoliyatlar majmuasi sifatida qaralib, uning asosiy drayveri sifatida inson kapitali va ma'lumotga asoslangan boshqaruv (data-driven governance) ko'rsatiladi. O'zbekistonda oliy ta'limni modernizatsiya qilish bo'yicha 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi va “raqamli transformatsiya” kun tartibi oliy ta'limda boshqaruv, ta'lim sifati, akademik halollik va moliyalashtirish samaradorligini oshirishda raqamli yechimlarning o'rmini keskin kuchaytirmoqda. Tahlil natijalari oliy ta'limda raqamli platformalar (masalan, HEMIS va masofaviy ta'lim infratuzilmalari) orqali resurslarni rejalashtirish, xarajatlarni shaffof nazorat qilish, grant va baholash mexanizmlarini avtomatlashtirish hamda ta'lim xizmatlari qamrovini kengaytirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, oliy ta'lim, HEMIS, masofaviy ta'lim, moliyalashtirish samaradorligi, shaffoflik, inson kapitali, data-driven boshqaruv

1. Kirish

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivoji bilan bir qatorda ta'lim tizimini isloh qilish ustuvor yo'nalishga aylandi. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida kadrlar salohiyati — milliy raqobatbardoshlikning hal qiluvchi omilidir: raqamli ko'nikmalarga ega mutaxassislar tayyorlanmasa, iqtisodiyot tarmoqlarida raqamli transformatsiya sustlashadi va mehnat bozorida “ko'nikmalar tafovuti” (skills gap) kuchayadi. Shu nuqtai nazardan, oliy ta'lim tizimi raqamli iqtisodiyot uchun ikki karra funksiyani bajaradi:

1. raqamli iqtisodiyot kadrlarini (IT, ma'lumotlar tahlili, kiberxavfsizlik, raqamli boshqaruv, raqamli tadbirkorlik) tayyorlaydi;

2. o'zining ichki boshqaruvi va moliyalashuvini raqamlashtirish orqali samaradorlik va shaffoflikni oshiradi.

O'zbekistonda oliy ta'limni modernizatsiya qilish bo'yicha asosiy hujjatlardan biri — “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” bo'lib, u ta'lim sifatini yaxshilash, fan-ta'lim-ishlab chiqarish integratsiyasi va raqobatbardosh

^a  <https://orcid.org/0009-0003-8241-7378>



kadrlar tayyorlashni strategik maqsad sifatida belgilaydi. Shuningdek, davlat miqyosida raqamli transformatsiyaga yo'naltirilgan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi (Prezident farmoni) ta'lim sohasida ham raqamli yechimlarni joriy etishni rag'batlantiruvchi institutsional muhitni kuchaytiradi. Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki: oliy ta'limda raqamli iqtisodiyot mexanizmlarini joriy etish — faqat "kompyuterlashtirish" emas, balki byudjet xarajatlarini rejalashtirish, resurslarni taqsimlash, ta'lim sifati va baholashni standartlashtirish, akademik halollik va nazoratning raqamli instrumentlari orqali tizim barqarorligini ta'minlash demakdir

2. Tadqiqot metodologiyasi

"Ta'lim har doim eng qizg'in mulohazalarga sababchi bo'lgan va u inson huquqlari kabi hurmat qilingan. Ta'lim orqali ilmiy-iqtisodiy va siyosiy-ijtimoiy izlanishlar olib borilgan, ya'ni ta'lim eng avvalo shaxs va jamiyat uchun ulkan foyda keltirgan, shuningdek davlat uchun ham. Ta'lim – shaxsning ma'rifatlilik va tarbiyalanganlik darajasini o'rtirish orqali uning rivojlanishini ta'minlash maqsadida o'rgatuvchi bilan o'rganuvchilar o'zaro birgalikda amalga oshiradigan didaktik faoliyatdir". "Shaxsning aqliy taraqqiyotini ta'minlash masadida ko'riladigan didaktik chora-tadbirlar tizimi. Tarbiya esa – avlodlararo ijtimoiy-tarixiy va hayotiy tajribani uzatishga xizmat qiladigan, oila, ta'lim muassasalari, ijtimoiy, siyosiy va boshqa tashkilotlar, OAV va boshqa ta'siri ostida jismonan sog'lom, manan barkamol insonni shakllantirish va takomillashtirish jarayonini anglatuvchi tushuncha" hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan dialektik tushuncha bo'lib, ta'lim Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari (shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish tizimlari) yaxlit ma'rifiy-tarbiyaviy, ijtimoiy-ma'naviy mushtarakligidan tashkil topgan. Demak, shaxs ta'limni davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim tizimi orqali o'zlashtirsa, tarbiyani ona qornidan tortib to qabrgacha kechadigan jarayonlar orqali o'rtirib boradi. Ma'rifatparvar adib Abdulla Avloniy "Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo-saodat-yo falokat masalasidir", deb ta'kidlar ekan, avvalo farzand tarbiyasini, avlod tarbiyasini, qolaversa, millat tarbiyasini nazarda tutgan.

Darhaqiqat, har bir davlat o'z fuqarolari bilimli haq-huquqini taniydigan, ma'navi barkamol, bir so'z bilan aytganda, komil inson bo'lib voyaga etishi haqida qayg'uradi. Biz komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustuvor sohasi deb e'lon qilganmiz. Komil inson deganda, biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushuniladi. Barchamizga ma'lumki ta'lim sohasidagi islohotlar mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning uzviy va hal qiluvchi yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoev ta'kidlaganidek, "O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham bog'chadan boshlab oliy o'quv yurtigacha – ta'limning barcha bo'g'inlarini isloh qilishni boshladik". Mamlakat uchun davlatdagi ta'lim tizimining qay holatda ekanligi va

qanday kadrlar kelajakda tayyorlanishi muhim ahamiyatga ega. Ta'lim tizimining faoliyati esa ta'limga bo'lgan e'tiborga asoslanadi.

O'zbekistonlik iqtisodchi H.Do'stmuhammadning fikricha "Ta'lim - bu barkamol insonni shakllantirishga qaratilgan investitsiya. Jamiyat ham, davlat ham, bunday investitsiya kiritishdan manfaatdor, chunki, ta'lim sifatini oshirish ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, mehnat unumdorligini oshirishga, mavjud ijtimoiy muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Shu bois, ta'limga yo'naltirilayotgan moliyaviy resurslar va ulardan samarali foydalanish chora-tadbirlari qo'llanilayotgan ustuvor ahamiyatga egadir". Shu bilan birga, soha sifatida ta'lim bu aholining ta'lim xizmatlariga bo'lgan turli ehtiyojlarini qondirishga, shuningdek, jamiyatning inson resurslarini ko'paytirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim faoliyati bilan shug'ullanadigan muassasalar, tashkilotlar va korxonalar to'plamidan iboratdir. Ta'limning pedagogik jarayon sifatida asosiy maqsadi, uning vazifasi insonning shaxs, ishchi, fuqaro sifatidagi qadriyatlarini oshirishdir. Takror ishlab chiqarish iqtisodiy o'sishning sharti bo'lar ekan, unda ta'lim omilining o'rni beqiyos. O'zbekistonda ta'lim har bir insonning butun umri davomida hayotining tarkibiy qismiga aylanish imkonini yaratadigan ta'lim tizimi joriy etildi. Mamlakatimizda 2017 yil 1 oktyabr holatiga xalq ta'limi tizimi maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim va maktabdan tashqari ta'limni o'z ichiga olgan. Endilikda Xalq ta'limi vazirligining maktabgacha yoshdagi bolalarning o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish funksiyalari barcha davlat maktabgacha ta'lim muassasalari bilan birga Maktabgacha ta'lim vazirligiga o'tkazilgan. Bolalar va o'smirlarning yakka tartibdagi ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat birlashmalari, shuningdek boshqa yuridik va jismoniy shaxslar madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini tashkil etishlari mumkin. Maktabdan tashqari ta'lim muassasalariga bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, bolalar-o'smirlar sport maktablari, san'at maktablari, musiqa maktablari, studiyalar, axborot-kutubxona muassasalari, sog'lomlashtirish muassasalari va boshqa muassasalar kiradi. "O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning eng asosiysi bu, shaxs salohiyatini ko'tarish hisoblanadi. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya isloh qilishning, takomillashtirishning, eng avvalo huquqiy asoslari yaratildi. 1992 yil 8 dekabrda o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinib, har bir fuqaroning bepul umumiy ta'lim olish huquqi, ta'limning davlat nazoratida ekanligi qonuniy kafolatlandi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuniga ko'ra ta'lim olish shakllari quyidagilardan iborat":

- ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish (kunduzgi);
- ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olish (sirtqi, kechki, masofaviy);
- dual ta'lim;
- oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish;
- katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish;
- inklyuziv ta'lim;



- eksternat tartibidagi ta'lim;
- mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash.

Bugungi kunda mamlakatimizdagi ta'lim tizimi turlarini quyidagicha tasniflash mumkin (1.1-jadval).

1-jadval

O'zbekistonda ta'lim tizimi turlari

№	Ta'lim turlari	Ta'lim turlarining tarkibi
1.	Maktabgacha ta'lim va tarbiya	-
2.	Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim	boshlang'ich ta'lim (I — IV sinflar); tayanch o'rta ta'lim (V — IX sinflar); o'rta ta'lim (X — XI sinflar).
3.	Professional ta'lim	boshlang'ich professional ta'lim; o'rta professional ta'lim; o'rta maxsus professional ta'lim
4.	Oliy ta'lim	bakalavriat; magistratura
5.	Oliy ta'limdan keyingi ta'lim	tayanch doktorantura falsafa doktori (PhD); doktorantura fan doktori (Dcs)

Ta'lim tizimining samaradorligi uni moliyalashtirish bilan chambarchas bog'liqdir. Shunday ekan, dastlab moliyalashtirishning mohiyati va zarurligini ko'rib chiqamiz, keyin ta'lim tizimini moliyalashtirish xususiyatlarini tadqiq qilamiz. Mamlakatimiz inson manfaatlarini uning huquqlari va erkinliklari yuksak darajadagi qadriyatlardan biri bo'lgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lidagi qadamlar tashlab borar ekan, bugungi kunda iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jihatdan bir qator yutuqlarga erishayotganligi va barcha sohalaridagi islohotlar jadalravishda olib borilayotganligi, ta'lim tizimiga yo'naltirilgan resurslarning bugungi kundagi samarasi bilan izohlanadi. Moliyalashtirish deganda tor ma'noda pul mablag'lari, moliyaviy resurslar bilan ta'minlash tushuniladigan bo'lsa, kengroq ma'noda belgilangan maqsadga erishish yoki faoliyatni amalga oshirish uchun moliyaviy ta'minlashni, ya'ni moliyaviy resurslar ajratishni tushunishimiz mumkin.

3. Natijalar

Ta'limni moliyalashtirish moliyaviy-iqtisodiy mexanizmga asoslanib, u o'zaro uzviy bog'langan iqtisodiy,

huquqiy va tashkiliy elementlar majmuasidan iborat murakkab tizimni ifodalaydi. Mazkur mexanizm ta'lim tizimini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish shartlari hamda usullarini qamrab oladi.

Ta'lim sohasidagi moliyaviy mexanizmning o'ziga xosligi mablag'larni shakllantirish va ulardan foydalanish jarayonining ta'lim muassasalari darajasi hamda faoliyat yo'nalishlariga mos ravishda tashkil etilishi bilan belgilanadi. Zamonaviy sharoitda ushbu mexanizm byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirishni pullik ta'lim xizmatlari va boshqa o'zini o'zi moliyalashtirish manbalari bilan uyg'unlashtirishga asoslanadi. Bunda bepul ta'lim xizmatlarini pullik xizmatlar bilan to'liq almashtirish emas, balki ularni oqilona va muvozanatli integratsiya qilish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim tizimining moliyaviy mexanizmi umumiy ko'rinishda ta'lim muassasalarining moliyaviy resurslarini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonlarini maqsadli tartibga solish tizimi sifatida ifodalanishi mumkin.

D. Raxmonovning fikricha "Ta'lim tizimini moliyalashtirish yo'nalishlarini kengaytirish lozimligi ta'lim bilan aholini qamrab olishning dolzarbligi orqali ifoda etiladi. O'zbekistonda ta'limning qamrab olish darajasi birmuncha kichik raqamlarda bo'lib qolayotganligi uning moliyaviy dastaklari bilan bevosita bog'liq bo'lishi mumkin. Shu boisdan ham, ta'lim tizimini moliyalashtirish mianbalarini va ularning boshqaruvini liberallashtirish zaruriyati tug'iladi".

H.Do'stmuhammadning fikricha "Xalq ta'limi tizimi xarajatlarini samarali amalga oshirishni tashkil qilish birinchi navbatda, xarajatlarni rejalashtirilgan obektlar to'liq qamrab olinishi va ular bo'yicha hisoblanishi lozim bo'lgan ko'rsatkichlarning mutlaq va nisbiy darajalariga bog'liq. Ta'lim tizimining byudjet hisobi xarajatlarni amalga oshirishda umumta'lim muassasalarini saqlash uchun xarajatlarni turlari bo'yicha me'yorlashtirish usulidan ko'ra, bir o'quvchiga o'rtacha me'yorlar asosida xarajatlarni amalga oshirish ko'rsatkichi maqbul yo'l hisoblanadi. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim muassasalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari soni va ulardagi tarbiyalanuvchilar, o'quvchilar soni yilma-yil kamayib borish tendentsiyasiga ega. Aksincha, respublikamizda akademik litseylar soni esa keskin o'sish tendentsiyasiga ega".

Davlat ta'lim muassasalarini moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetidan, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlaridan, tumanlar va shaharlar byudjetlaridan, kadrlar buyurtmachilarining mablag'lari hisobidan, shuningdek byudjetdan tashqari mablag'lar hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi. Nodavlat ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirish muassislarning, kadrlar buyurtmachilarining pul va moddiy mablag'lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Davlat ta'lim muassasalari ustavida belgilangan vazifalarga muvofiq pulli ta'lim xizmatlari va boshqa xizmatlar ko'rsatish, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega. Pulli ta'lim xizmatlarini ko'rsatish davlat ta'lim muassasalarining asosiy faoliyatiga to'sqinlik qilmasligi kerak. Davlat ta'lim muassasalarida qo'shimcha ta'lim xizmatlari ko'rsatganlik uchun haq undirish tartibi ular tomonidan mustaqil ravishda



belgilanadi. Davlat ta'lim muassasalari pulli ta'lim xizmatlari va boshqa xizmatlar ko'rsatish hamda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish hisobidan olingan pul mablag'larini mustaqil ravishda tasarruf etishga haqli. Ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishning qo'shimcha manbalari quyidagilardan iborat".

4. Xulosa

Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim tizimi milliy taraqqiyotning strategik infratuzilmasiga aylanadi: u raqamli iqtisodiyot kadrlarini tayyorlaydi va bir vaqtning o'zida o'zining boshqaruv hamda moliyalashtirish mexanizmlarini raqamlashtirib, samaradorlikni oshiradi. O'zbekistondagi 2030 yilgacha oliy ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi va davlat miqyosidagi raqamli transformatsiya kun tartibi oliy ta'limni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qilmoqda. HEMIS orqali akademik ko'rsatkichlarni shakllantirish va grant mexanizmlarini dalillarga asoslash, masofaviy ta'limning rasmiy parametrlar asosida kengayishi hamda proktoring kabi quyi tizimlar — raqamli iqtisodiyotning oliy ta'limdagi amaliy "instrumentlari" sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalangan adabiyotlar / References

[1] O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonunining 62-moddasi

[2] O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni

[3] Raxmonov D. O'zbekistonda ijtimoiy sohani moliyalashtirishning metodologik asoslarini takomillashtirish. Iqtisod fanlari doktori darajasini olish uchun dissertatsiya. T.2018 yil

[4] Do'stmuhammad H.Xalq ta'limini moliyalashtirish. Mogorafiya.-Iqtisodiyot,2016.-142 bet

[5] OTM bakalavriatida masofaviy ta'lim shakli bo'yicha 2024/2025 qabul parametrlari (rasmiy PDF).

[6] World Bank. Digital Economy (2025) — raqamli iqtisodiyotning ish o'rinlari, innovatsiya va barqaror rivojlanishga ta'siri haqida.

[7] ITU/OECD. Roadmap toward a common framework... (2020) — G20 doirasida raqamli iqtisodiyot ta'rifi o'ldirish manba.

Mualliflar to'g'risida ma'lumot/ Information about the authors

Farmonov Bekzod	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi, "Biznes kommunikatsiya va chet tillari" kafedrasida filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, dotsent
Begmatovich / Bekzod Farmonov	E-mail: b2dna1517@gmail.com https://orcid.org/0009-0003-8241-7378



B. Farmonov

*The significance of the digital economy in the higher education system: human capital, digital governance, and financial efficiency (Uzbekistan 's experience).....***258**